XALQ DEPUTATLARI PISKENT TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - avgust VI-67-92-10-142-K/23 Piskent tumani hokimligi

Tumandagi “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘inini belgilash va bo‘lish yo‘li orqali yangi mahalla fuqarolar yig‘iniga nom berish to‘g‘risida

“Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari, “Piskent tumandagi “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududi chegaralarini belgilash va bo‘lish yo‘li orqali yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tuzish to‘g‘risida”gi tuman Kengashining VI-65-64-10-142-K/23-son qarori hamda “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududi chegaralarini belgilash va bo‘lish yo‘li orqali yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tuzish yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni va vakillar iltimosnomasini ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘inini belgilash va bo‘lish yo‘li orqali yangi mahalla fuqarolar yig‘iniga “Gulshan” nom berish to‘g‘risidagi vakillar iltimosnomasi va nom berish taklifi ma’qullansin.

2. “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish yo‘li orqali yangi tashkil etilishi belgilangan mahalla fuqarolar yig‘inini “Gulshan” mahalla fuqarolar yig‘ini deb nom berish to‘g‘risidagi taklifi geografik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasida ko‘rib chiqish uchun tavsiya etilsin.

3. “Gulshan” mahalla fuqarolar yig‘ini deb nom berish to‘g‘risidagi ushbu qaror loyihasio jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida muhokamaga qo‘yilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi

A.Umarov hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i M.Miryunusov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **Yakubov N.G.**